

XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2025- yil 1- aprel holatiga 3 656,0 ming kishini tashkil etib, 2025- yil boshidan 16,7 ming kishiga ya'ni 0,5 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 561,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 2 094,1 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2025- yil yanvar-mart oylarida

- Aholi soni **16,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **22,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **3,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **5,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **0,8 ming nafarni** tashkil etdi

2025- yilning yanvar-mart oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
3 639 318 kishi
(2025- yil 1- yanvar holatiga)



22,2 *ming bola*

Tug'ilganlar soni



3,7 *ming kishi*

O'lganlar soni



3,1 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar soni



4,9 *ming kishi*

Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
3 656 017 kishi
(2025- yilning 1- aprel holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni¹⁾

(2025- yilning 1- aprel holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qashqadaryo viloyati	3 656,0	1 561,9	2 094,1
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	302,1	302,1	-
Shahrisabz sh.	150,7	150,7	-
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	228,0	53,6	174,4
Dehqonobod	163,5	31,1	132,4
Qamashi	301,3	71,3	230,0
Qarshi	281,2	101,8	179,4
Koson	321,0	168,3	152,7
Kitob	288,8	107,0	181,8
Mirishkor	132,9	49,9	83,0
Muborak	95,7	75,9	19,8
Nishon	171,5	102,0	69,5
Kasbi	218,7	84,5	134,2
Ko'kdala	195,6	33,3	162,3
Chiroqchi	275,8	78,7	197,1
Shahrisabz	239,8	57,6	182,2
Yakkabog'	289,4	94,1	195,3

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni

(1- aprel holatiga ming kishi)

	2024- y.	2025- y.	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da</i>
Qashqadaryo viloyati	3 577,0	3 656,0	102,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	297,0	302,1	101,7
Shahrisabz sh.	147,8	150,7	102,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	223,3	228,0	102,1
Dehqonobod	160,3	163,5	102,0
Qamashi	294,5	301,3	102,3
Qarshi	273,7	281,2	102,7
Koson	313,6	321,0	102,4
Kitob	283,0	288,8	102,0
Mirishkor	130,0	132,9	102,2
Muborak	93,8	95,7	102,0
Nishon	167,5	171,5	102,4
Kasbi	213,9	218,7	102,2
Ko'kdala	189,9	195,6	103,0
Chiroqchi	269,3	275,8	102,4
Shahrisabz	235,8	239,8	101,7
Yakkabog'	283,6	289,4	102,0


Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2024- y.	2025- y. ¹⁾	o'lish, kamayish	2024- y.	2025- y. ²⁾
Tug'ilganlar	21 478	22 158	680	24,2	24,6
O'lganlar	3 650	3 651	1	4,1	4,1
Tabiiy o'lish	17 828	18 507	679	20,1	20,5
Nikohlar	5 542	4 997	-545	6,2	5,6
Ajralishlar	845	824	-21	1,0	0,9

Tug'ilish darajasi. 2025- yilning yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni 22 158 kishini tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (21 478 kishi) nisbatan 680 kishiga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 24,6 promilleni tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (24,2 promille) nisbatan 0,4 promillega ko'paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-mart oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi Mirishkor tumanida 14,3 dan 18,3 promillega va Koson tumanida 21,6 dan 22,9 promillega ko'payishi kuzatilgan.

¹⁾ dastlabki ma'lumot


²⁾ dastlabki ma'lumot

Tug‘ilish. 2025- yilning yanvar-mart oylarida 22,2 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 24,6 promilleni tashkil etdi hamda 2024- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko‘payganligi (2024- yilning yanvar-mart oylarida 24,2 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo‘yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti (2025- yilning yanvar-mart oylarida)



O‘lim darajasi. 2025- yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni 3 651 kishini tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (3 650 kishi) nisbatan 1 kishiga yoki 100,0 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,1 promilleni tashkil qildi (2024- yilning yanvar-mart oylarida 4,1 promille).

O'lim soni va koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Qarshi shahrida (4,5 dan 5,4 promillega), Qamashida (3,8 dan 4,4 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2025- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,6 promilleni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti


(2025- yilning yanvar-mart oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2025- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

(2025- yilning yanvar-mart oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2025- yilning yanvar-mart oylari FHDYO organlarida 4 997 ta nikohlar va 824 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 5,6 ta nikoh (2024- yilning tegishli davrida 6,2 ta) va 0,9 ta ajralishlar (2024- yilning tegishli davrida 1,0 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2024- y.</i>	<i>2025- y.</i>	<i>2024- y.</i>	<i>2025- y.</i>

Qashqadaryo viloyati	5 542	4 997	845	824
-----------------------------	--------------	--------------	------------	------------

shaharlar:

Qarshi sh.	372	451	118	112
------------	-----	-----	-----	-----

Shahrisabz sh.	199	177	58	59
----------------	-----	-----	----	----

<i>tumanlar:</i>				
------------------	--	--	--	--

G'uzor	314	276	43	33
--------	-----	-----	----	----

Dehqonobod	214	182	26	29
------------	-----	-----	----	----

Qamashi	434	443	59	54
---------	-----	-----	----	----

Qarshi	411	347	69	80
--------	-----	-----	----	----

Koson	481	438	56	42
-------	-----	-----	----	----

Kitob	489	403	66	61
-------	-----	-----	----	----

Mirishkor	216	169	12	20
-----------	-----	-----	----	----

Muborak	115	102	37	28
---------	-----	-----	----	----

Nishon	257	218	35	45
--------	-----	-----	----	----

Kasbi	316	263	42	32
-------	-----	-----	----	----

Ko'kdala	323	299	22	26
----------	-----	-----	----	----

Chiroqchi	437	396	58	58
-----------	-----	-----	----	----

Shahrisabz	527	443	68	84
------------	-----	-----	----	----

Yakkabog'	437	390	76	61
-----------	-----	-----	----	----

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2025- yilning yanvar-mart oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3 069 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 4 877 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2024- yilning yanvar-mart oylarida	2025- yilning yanvar-mart oylarida
	Ko'chib kelganlar	2 976	3 069
	Ko'chib ketganlar	4 481	4 877
	Migratsiya saldosı	-1 505	-1 808

2025- yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig'i minus 1 808 kishiga (2024- yilning shu davrida minus 1 505 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Yakkabog' (minus 313), G'uzor (minus 276) va Shahrisabz (minus 219) tumanlarida kuzatilgan.


Yanvar-mart oylarida

Soni, ming kishi

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda

² dastlabki ma'lumot



Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2025- yil 1- aprel holatiga 302,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 1,3 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)

2024- yilning yanvar-mart oylarida	2025- yilning yanvar-mart oylarida
Tug'ilish	
22,9	22,6

2025- yilning yanvar-mart oylarida 1,7 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 22,6 promilleni tashkil etdi (2024- yilning mos davrida 22,9 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2025- yilning yanvar- mart oylarida 451 ta nikoh va 112 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,1 promilleni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan ko'paygan. (2024- yilning mos davrida 5,0 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,5 promilleni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. 2024- yilning mos davrida 1,6 promille bo'lgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-mart holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

